

ISMOIL GASPIRINSKIY SHAXSIYATI VA UNING JADIDCHILIK HARAKATIDAGI TUTGAN O'RNI

Abdurazzaqov Shaxzodxo'ja Shokirxo'ja o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
shaxzodxojaabdurazzaqov@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0009-4743-378X>

Annotatsiya: Mazkur maqolada qrim-tatar ziyolisi, pedagog, noshir, yozuvchi va ijtimoiy islohotchi sifatida tanilgan Ismoil Gaspirinskiyning hayoti, ijodi va faoliyati, shuningdek, Turkistondagi jadidchilik harakatida tutgan o'rni haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: "Zanjirli", Tiflis, "Tarjimon", "Xotinlar o'lkasi", Gulbobo ziyorati", "Arslon qizi", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona".

ЛИЧНОСТЬ ИСМАИЛА ГАСПРИНСКОГО И ЕГО РОЛЬ В ДВИЖЕНИИ ДЖАДИДИЗМА

Аннотация: В данной статье приведена краткая информация о жизни, творчестве и деятельности Исмаила Гаспринского — известного крымско-татарского просветителя, педагога, издателя, писателя и общественного реформатора, а также о его роли в движении джадидизма в Туркестане.

Ключевые слова: "Занджирли", Тифлис, "Тарджиман", "Страна женщин", "Паломничество Гюльбобо", "Дочь Арслана", "Голос Туркестана", "Голос Ферганы".

THE PERSONALITY OF ISMAIL GASPIRALI AND HIS ROLE IN THE JADIDISM MOVEMENT

Annotation: This article provides brief information about the life, works, and activities of Ismail Gaspirali — a well-known Crimean Tatar intellectual, educator, publisher, writer, and social reformer — as well as his role in the Jadidism movement in Turkestan.

Keywords: "Zanjirli", Tiflis, "Tarjimon", "The Land of Women", "Gulbobo Pilgrimage", "Arslan's Daughter", "The Voice of Turkestan", "The Voice of Fergana".

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida musulmon Sharqida, xususan, Turkiston, Qrim va Volga bo'ylarida ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy

uygʻonish jarayoni keng tus oldi. Bu davrda xalqning savodxonligini oshirish, ilm-fanni zamon talablariga mos yoʻnalishda rivojlantirish, milliy oʻzlikni anglash va madaniy yangilanish gʻoyalari ilgari surila boshladi. Ana shu harakatlar ichida jadidchilik oqimi alohida ahamiyat kasb etdi. Jadidlar nafaqat taʼlim tizimini isloh etishni, balki jamiyatning maʼnaviy hayotini yangilashni ham oʻz oldilariga maqsad qilib qoʻygan edilar.

Mazkur yangilanish harakatining poydevorini qoʻygan va uni nazariy hamda amaliy jihatdan mustahkamlab bergan buyuk maʼrifatparvarlardan biri Ismoil Gaspirinskiy (1851–1914) edi. U oʻz davrining taniqli ziyolisi, pedagog, noshir, yozuvchi va ijtimoiy islohotchi sifatida musulmon xalqlarining maʼnaviy uygʻonishida beqiyos xizmat koʻrsatgan. Uning “Til, fikr, ishda birlik” shiori oʻz zamonasida musulmon xalqlarining yagona maʼnaviy uygʻonish dasturiga aylandi.

Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914) qrim-tatar ziyolisi, pedagog, noshir, yozuvchi va ijtimoiy islohotchi sifatida XIX asr oxiri va XX asr boshidagi turk-islom dunyosida muhim shaxs sifatida tanilgan. U 1851-yil 20-martda Qrimning Ajikuy qishlogʻida tavallud topgan. Otasi Gaspirali Mustafa harbiy xizmatchi edi, Kavkaz va Qrim general-gubernatori, knyaz Voronsovning tarjimoni sifatida faoliyat olib borgan, sadoqatli xizmatlari uchun 1853-yilda poruchik unvoniga munosib koʻrilgan, onasi esa mahalliy zodagon oiladan chiqqan edi. Gaspirinskiy dastlabki taʼlimini Simferopoldagi guberniya gimnaziyasida, keyinchalik Moskvadagi Milyutin harbiy gimnaziyasida oʻqigan. Oʻqishni tamomlab, 1868-yilda Bogʻchasaroydagi “Zanjirli” madrasasida rus tilidan dars bera boshlagan[1]. U muallimlik faoliyati davomida rus tilida chop etiladigan markaziy gazetalarga obuna boʻladi. Bu gazetalar orqali oʻqituvchilari va oʻquvchilarga Rossiya imperiyasining ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir muhim voqealar bilan muntazam tanishtirib borgan. Bu jarayonda rus matbuotidagi milliy masalalar uning eʼtiborini tortgan. I.Gaspirinskiy musulmon xalqlarning ruslar bilan bir xil mavqeda yashashlari uchun bu xalqlarni qoloqlikdan olib chiqish darkor deb hisoblagan. Bu maqsadi eski maktab va madrasadagi taʼlim tizimini isloh qilishni talab qilardi. Rus tili muallimi vazifasini bajarish asnosida I.Gaspirinskiy anʼanaviy maktab va madrsalarning oʻqitish tizimiga qarshi chiqadi. Yevropa maktablaridagi kabi dars davomiyligi 45 daqiqa boʻlishi, har bir dars orasida qisqa

tanaffus joriy etish va o'quvchilarga dunyoviy fanlardan bilim berish muhim ekanligini ilgari suradi[2].

U harbiy karyerani tanlamadi va 1871-yilda Turkiyaga ko'chib, u yerda ikki yil yashab, Usmonli madaniyati va ta'lim tizimi bilan tanishdi.

1872-yilda Yevropaning Myunxen, Vena, Parij va Shtutgardda bo'lib, fransuz tilini o'zlashtirdi. 1876-yilda Bog'chasaroyga qaytib kelgach, "Zanjirli"da rus tili muallimi sifatida ishini davom ettiradi.

I.Gaspirinskiy o'quv tizimining isloh qilish to'g'risidagi fikrlari qattiq qarshilikka uchraydi. Biroq shunga qaramay, taraqqiyparvarlar uning xayrli maqsadlar bilan yashayotganligini tushunib, uni 1879-yilda shahar Dumasiga rais etib sayladilar.

Qrimning Rossiya tasarrufiga o'tganligining 100 yilligi munosabati bilan hamda rus va tatar tillarida nashr etish sharti bilan I.Gaspirinskiy 1883-yilda turkiy tilli xalqlar orasida mashhur bo'lgan "Tarjimon" gazetasining nashr etishga ruxsat olgan[3]. Gazetaga dastlab Qrimda istiqomat qiluvchi bor-yo'g'i 9 kishi a'zo bo'ldi. Keyinchalik gazeta o'zining taraqqiyparvarlik yo'nalishi bilan Qozon tatarlari orasida katta obro'ga erishdi. Qisqa muddat davomida gazeta Turkiya, Volga bo'ylari va Xitoyga qadar bo'lgan hududlarga tarqalib, shu hududlarda yashovchi musulmon aholi bolalarining dunyoqarashi va ma'naviyatida keskin o'zgarishlarni amalga oshira oldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Manbalarda keltirilishicha 1890-yilning o'rtalarida Rossiya imperiyasida 105 ta kundalik gazeta, jumladan, Moskva va Peterburgda 28 ta, Varshavada 12 ta, Rigada 8 ta, Tiflisda 7 ta, Qozonda esa 3 ta gazeta nashr qilingan. 1905-yildan boshlab kundalik gazetaga aylangan "Tarjimon" Rossiya imperiyasida yashovchi turkiy tilli musulmon xalqlari orasida o'zining saviyasi va ilgari surayotgan g'oyalari bilan musulmon xalqlarining har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

"Tarjimon" gazetasi Turkiston aholisining ijtimoiy, ma'rifiy va madaniy hayotiga katta ta'sir o'tkazayotganining yana bir muhim tomoni shunda ediki Turkiston mavzusidagi maqolalarning gazeta sahifalaridan joy olishidir.

I.Gaspirinskiyning eng muhim hissasi “Dilda, fikrda, ishda birlik” shiori ostida turkiy xalqlarning birlashuvi g’oyasini ilgari surishidir. U bu g’oyani “Tarjimon” orqali targ’ib qildi va turkiy xalqlar uchun umumiy adabiy til yaratishga harakat qildi. Uning til islohoti nafaqat matbuotda, balki ta’lim sohasida ham katta o’zgarishlarni keltirib chiqardi. 1884-yilda Gaspirinskiy Boqchasaroyda “usuli jadid” (yangi usul) maktabini ochdi, bu maktabda an’anaviy diniy ta’lim o’rniga zamonaviy fanlar o’qitildi. Ushbu tizim keyinchalik Turkiston, Qozog’iston va boshqa hududlarda keng tarqaldi va jadidchilik harakatining asosiy poydevoriga aylandi.

Ismoil Gaspirinskiy jadid maktablarini tashkil etish uchun o’z harakatlarini boshlaydi. Dastlab Turkiston mansabdorlariga, 1891-yilda Turkiston general-gubernatori A.Vrevskiy[4]ga Turkiston o’lkasidagi maktab va madrasalarni tubdan isloh qilish uchun maktub bilan murojaat qiladi. Maktubda milliy maktablarda o’qitish talablarini soddalashtirish, 6 yilda ibtidoiy (boshlang’ich) maktabda beriladigan bilim, o’qish-yozish o’rgatishni 2 yilda amalga oshirish, bu orqali tejab qolingan 3-4 yilni musulmonlar yashash sharoitini yaxshilash uchun sarflash kerakligi masalasini qo’yadi. Buning uchun ayrim ilg’or madrasalarni oliy darajada qayta ko’rib chiqib, rus tili, rus huquqshunosligi va pedagogika fanini o’rgatish, turkistonliklarda o’qituvchilar tayyorlash kerakligini ta’kidlaydi.

General-gubernator maktubni o’rganib chiqib, taklif berish uchun Toshkent o’qituvchilar gimnaziyasi direktori N.Ostroumov[5] va Turkiston o’lkasi bo’yicha mutaxassis V.Nalivkin[6] ga topshiradi[7].

N.Ostroumov quyidagicha xulosa bergan: “Mazkur xat bilan tanishib, janob Gaspirinskiy jur’atiga hayron qoldim. Turkiston o’lkasi musulmonlari maorifini qayta ko’rish navbatda turgan masala edi. Biz bu masalani o’z o’rnida, masalaga aloqadorligi Xalq maorifi vazirligi tomonidan e’tirof etilmagan janob Gaspirinskiyning ko’rsatmalarisiz hal qilamiz. Rossiyada rus bo’lmagan xalqlarning maorifi masalasida g’ayrirus tatarining emas, Xalq maorif vazirligining rus millatiga mansub a’zosining ko’rsatmalari kerak. Gaspirinskiy o’zinini “Yosh tatarlar” partiyasining rahbari deb tasavvur qiladi va o’z ta’sirini turkistonliklarga ham o’tkazishga urinadi. Uning maslakdoshlari Toshkentda ham bor. Hukumatning vazifasi Turkiston aholisini ruslashtirishga erishish ekan, Gaspirinskiy kabi

shaxslardan g'oyatda ehtiyot bo'lishi kerak. Chunki bunday odamlar "rus madaniyatining barcha yutuqlaridan foydalanib, o'z millatini butun jon-jahdlari bilan himoya qilish niyyatidalar".

N.Ostroumovning sherigi V.Nalivkin ham quyidagi fikrlarni bildirgan: "Turkistonda olib borilayotgan maorif siyosati borasida Gaspirinskiy kabi bir odamning fikrlariga quloq tutilsa, rus hukumati bundan pushaymon bo'ladi"[8]. Bu ikki mulozimni tavsiyalariga asoslanib A.Vrevskiy I.Gaspirinskiyning murojaatiga rad javobini bergan. U mazkur sharoitda o'z g'oyalarini amalga oshirish uchun mahalliy hukmdorlar va ba'zi ziyolilar e'tiborini o'ziga jalb qilishga harakat qilgan. Shu asnoda 1893-yilda I.Gaspiriniy Turkistonga keladi. I.Gaspirinskiyga shirvonlik Majid G'anizoda hamrohlik qiladi. 1893-yilda iyul oyida Ismoil Gaspirinskiyning Samarqandga tashrifi mahalliy aholi tomonidan ko'tarinki ruhda qabul qilingan. Samarqandlik mashhur tatar savdogari Abdug'ani Husainov I.Gaspirinskiydan Samarqandda jadid maktabi ochishni iltimos qilib, maktab ochish uchun barcha harajatlarni o'z mablag'i hisobidan qoplashini aytadi. Shu tariqa Turkiston o'lkasida birinchi jadid maktabiga asos solinadi[9].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Tarjimon" gazetasida keltirgan ma'lumotga ko'ra, Samarqandda yosh bolalar uchun zamonaviy bilimlar berishga yo'naltirilgan Abdug'ani Husainov himmati bilan ochilgan yangi usul maktabi "g'oyat xush suratda taraqqiy etayotgan" bo'lib, bu maktabning samarali faoliyatini va mahalliy aholini ziyoli qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi[10].

"Tarjmon" gazetasining 1906-yil 17-fevraldagi sonida Majid G'anizoda muallifligida bosilgan bir maqolada yozilishicha, Ismoil Gaspirinskiyning 1893-yilda Samarqandga qilgan sayohatida mahalliy savdogar Abdug'ani Husainov bilan hamkorlikda Turkistonda o'lkasida birinchi ochilgan usuli jadid maktabi faoliyatida I.Gaspirinskiyga hamrohlik qilgan Majid G'anizoda muhim ro'l o'ynaydi. Ismoil Gaspirinskiyning taklifiga binoan Majid G'anizoda Samarqandda 40 kun qolib usuli savtiya o'qitish tizimni targ'ib qilib, maktab ochilishga zamin yaratdi. 40 kun davomida bolalarga usuli savtiya asosida dars berdi. Keyinchalik bu maktab xalq

orasida bolalarni savodini tez chiqargannligi sababli “Mashino maktabi” nomi bilan mashhur bo‘ldi[11]. Bu bilan u yangi usul maktablarini samaradorligini ko‘rsatdi.

Shu yili amir Abdulahadxonning taklifi bilan I.Gaspirinskiy Buxoroga tashrif buyuradi. I.Gaspirinskiyning sa‘yi-harakatlari bilan amir Abdulahadxonning otasi amir Muzaffar sharafiga Buxoro shahrida tatar ziyolisi Xolid Burnashev[12] uyida “Muzaffariya” deb nomlangan yangi usul maktabi ochilgan[13].

I.Gaspirinskiyning panislomizim g‘oyalarini targ‘ib etmagani va rus musulmonlari, ya‘ni Rossiya imperiyasi tasarrufidagi yashovchi musulmonlar o‘rtasida bu g‘oyani keng yoyishga urinmagani, umuman hatti-harakatlarida nomaqbul ishlarning bo‘lmagani, eng muhimi “Usuli savtiya” maktabining sovet davrida yashamaganligiga qaramay, uning g‘oyalari Sovet davri hokimiyatini ham tashvishga solganligi uning g‘oyalari butun turkiy tilli musulmon xalqlari orasida nihoyatda ta‘siri kuchli bo‘lganligidan dalolat beradi.

I.Gaspirinskiy Turkistonga qilgan safari taassurotlari asosida gazetada turkum maqolalar e‘lon qildi. Uning “Buxoro va Boqchasaroy”, “Boqchasaroydan Toshkentga sayohat”, “Marg‘inoniy Burhoniddin. Olim, “Hidoya” (Shariat) kitobining muallifi” maqolalari Turkiston ziyolilari tomonidan iliq kutib olindi. Biroq “Tarjimon” gazetasining Turkiston hayoti uchun ahamiyati, birinchi navbatda, mahalliy yoshlarda ilmiy uyg‘onish ruhini tarbiyalagani, ularni ma‘rifat va madaniyatni yangi bosqichga olib chiqqanligidadir.

Ismoil Gaspirinskiyning badiiy iqtidori ham juda yuqori edi. Uning “Farangiston maktublari”, “Dorur-rohat musulmonlari”, “Sudan maktublari”, “Xotinlar o‘lkasi”, Gulbobo ziyorati”, “Arslon qizi”, “Kundug‘di”, “Ivan va Sulaymon”, “Baloyi islom”, “Mukolamayi salotin” kabi ko‘plab asarlar muallifi hisoblangan[14].

Gaspirinskiy shaxsiyatining yana bir muhim jihati uning ayollar huquqlari va ta‘limiga qaratgan e‘tibori edi. “Olami nisvon” jurnali orqali u musulmon ayollarining jamiyatdagi o‘rnini yaxshilashga harakat qildi va ularning o‘qishi, kasb egallashi va ijtimoiy hayotda faol bo‘lishini qo‘llab-quvvatladi. Bu g‘oyalar o‘sha davr uchun inqilobiy hisoblanardi, chunki musulmon jamiyatlarida ayollarning ta‘lim olishi ko‘pincha cheklangan edi. Shu bilan birga, Gaspirinskiy bolalar tarbiyasiga ham

katta ahamiyat bergan; "Olamī sibyon" jurnali orqali yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashga intildi.

Gaspirinskiy o'z faoliyatida siyosiy masalalarga ham aralashdi. U 1905-1906-yillardagi Rossiya inqilobi davrida musulmonlarning huquqlari uchun kurashdi va 1906-yilda Peterburgda bo'lib o'tgan Rossiya musulmonlari s'yezdida faol ishtirok etdi. Shu yili u "Rossiya musulmonlari ittifoqi" tashkilotining rahbarlaridan biri sifatida saylandi. Uning siyosiy faoliyati Rossiya hukumatining e'tiborini tortdi va u bir necha bor senzura va ta'qibga uchradi, ammo o'z ishini davom ettirishdan to'xtamadi.

1914-yil 9-sentabrda so'nggi soatlari yaqinlashib qolganligi sezgan I.Gaspirinskiy o'g'il-qizlari va kuyovlarini chaqirib: "Men kechadan boshlab o'zimni yomon his etmakdaman. Bu holatning nihoyasi shu kunlarda ma'lum bo'ladi. Dunyoga kelgach bir kuni hammamiz, albatta, vafot etamiz... Mening so'zlarimdan g'am-g'ussaga tushmang... Bu dunyoda tug'ilish tabiiy bo'lganidek, o'lish ham tabiiydir. Peshonaga yozilganini ko'ramiz. Men sizlarga o'z tavsiyamni aytaman..." – deya ularga quyidagi so'zlarni aytadi. "Tarjimon" bo'linmaydi, shoyad hech qachon bo'linib ketmasa. Farzandlarim o'sha joyda ishlashsin va tushgan foydadan bahramand bo'lib umr guzaronlik qilishsin. Umid qilamanki, o'g'illarim "Tarjimon"ning so'nishiga aslo yo'l qo'ymayajaklar"[15] – deya xitob qilgan.

Oradan ko'p vaqt o'tmay Ismoilbek Gaspirinskiy 1914-yil 11-sentabrda Boqchasaroyda vafot etdi, ammo uning merosi turk dunyosida chuqur iz qoldirdi. Uning g'oyalari keyinchalik Turkiyada Mustafo Kamol Otaturk islohotlariga, Qrimda milliy uyg'onish harakatlariga va O'rta Osiyoda jadidchilikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

I.Gaspirinskiy vafot etgan yili Turkistonda "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona" gazetaları nashr etila boshladi. I.Gaspirinskiyning turkistonlik do'stlari va shogirdlari "Tarjimon" gazetasining so'nishiga shu tariqa imkon bermadilar.

I.Gaspirinskiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari va orzulari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abulla Qodiriy, Hamza, Fitrat, Cho'lpon va Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa o'zbek jadidlari asarlari orqali butun Turkiston bo'ylab yoyilgan.

XULOSA

“Tarjimon” gazetasi va Ismoil Gaspirinskiy shaxsiyati turkiy xalqlarning XIX asr oxiri va XX asr boshidagi ma’rifiy, madaniy va milliy uygʻonish jarayonida muhim rol oʻynadi. Gazetaning keng tarqalishi va uning ilovalari Gaspirinskiyning jamiyatning barcha qatlamlarini zamonaviylashuvga jalb qilish strategiyasini koʻrsatadi. Gaspirinskiy esa oʻzining pedagogik, noshirlik va siyosiy faoliyati bilan turk-islom dunyosining rivojlanishiga katta hissa qoʻshdi. Uning islohotlari va gʻoyalari bugungi kunda ham tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilib, turkiy xalqlar tarixidagi muhim bosqich sifatida eʼtirof etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. - Т.: Маънавият, 2002. -Б. 165.
2. Жамолова Д. Туркистон жади́дларининг татар, турк, афғон ва озар тараққийпарварлари билан алоқалари тарихига оид // Фанлар академияси Тарих институти ҳузуридаги Ўзбекистон тарихи журна́ли. 3/2022. 24-53. – Б.25; Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. - Т.: Маънавият, 2002. -Б.15;
3. Каримов Н. Исмоил Гаспиринский ва Туркистон . - Т.: Шарқ, 2005. - Б.15.
4. A.Vrevskiy – 1889-1898-yillardagi Turkiston general-gubernatori
5. N.Ostroumov (1846-1930) – 1877-yili Turkiston oʻlkasi xalq oʻqishxonalari nazoratchisi, 1879-yildan boshlab oʻqituvchilar seminariyasi, 1883-yildan Toshkent erkaklar gimnaziyasi direktori.
6. V.Nalivkin (1852-1918) – tarixchi, tilshunosva oʻqituvchi. 1873-1875-yillarda Qoʻqon va Xiva xonliklariga qarshi uyushtirilgan qoʻzgʻolon ishtirokchisi.
7. Жамолова Д. Туркистон жади́дларининг татар, турк, афғон ва озар тараққийпарварлари билан алоқалари тарихига оид // Фанлар академияси Тарих институти ҳузуридаги Ўзбекистон тарихи журна́ли. 3/2022. 24-53. – Б.26
8. Жамолова Д. Туркистон жади́дларининг татар, турк, афғон ва озар тараққийпарварлари билан алоқалари тарихига оид // Фанлар академияси Тарих институти ҳузуридаги Ўзбекистон тарихи журна́ли. 3/2022. 24-53. – Б.26
9. Исоқбоев А.А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири - XX аср бошлари): Тарих фан. номз. ... дисс. - Т., 2008. – Б. 38.; Долимов У. Туркистонда жади́д мактаблари. – Т.: Университет, 2006. – Б. 33, 35.
10. Axbori doxiliya. Samarqand // Tarjimon, 1893-yil 6-avgust
11. Majid Gʻanizoda. Oq guldastasi yoki adabiyot jadida xodimalari // Tarjimon, 1906-yil 17-fevral.; Исоқбоев А.А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири - XX аср бошлари): Тарих фан. номз. ... дисс. - Т., 2008. – Б. 38.; Долимов У. Туркистонда жади́д мактаблари. – Т.: Университет, 2006. – Б. 33, 35.

12. Buxoroda faoliyat olib borgan tatar muallimi. XX asr boshlarida o'z uyida yangi usul maktabi ochgan hamda buxorolik va tatar bolalarga usuli savtiya asosida ta'lim bergan.
13. Исоқбоев А.А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири - XX аср бошлари): Тарих фан. номз. ... дисс. - Т., 2008. – Б.38; Жамолова Д. Туркистон жадиidlарининг татар, турк, афғон ва озар тараққийпарварлари билан алоқалари тарихига оид // Фанлар академияси Тарих институти ҳузуридаги Ўзбекистон тарихи журнали. 3/2022. 24-53. – Б.28
14. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Т.: Маънавият, 2002. -Б.187.; <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-ismoilbek-gasprinskiy-1851-1914/?lng=lat>
15. Каримов Н. Исмоил Гаспиринский ва Туркистон . - Т.: Шарқ, 2005. - Б.23.